

## YOSHLARDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH - DAVR TALABI

*Daminova Nigora Kudratovna*

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlardan ko'zlangan maqsad, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom va baquvvat, axloqan pok va vijdonli, ruhan tetik va barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. Ularning turmush tarzini xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan axloqiy an'analari, rasm-rusumlari, marosimlari bilan uyg'unlashtirib borish har tomonlama chinakam axloqli insonlar qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasi.

Har bir mamlakatning rivojlanishi ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirmay turib, ma'naviy boy barkamol insonni voyaga yetkazish, tarbiyalash mushkuldir. Shuning uchun ham "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilab bergan "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish"[1] kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli ham mustaqillikning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ma'rifiy, ma'naviy zamin qadriyatlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida bilim berishimiz hamda milliy ruhda tarbiyalashimiz, ularga xalqimiz urf-odatlari, axloq-odob normalari, salomlashish odobi, insonparvarlik sifatlarini singdirib, ularni yetuk, komil inson qilib tarbiyalashimiz lozim.

Yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularni barkamol, odobli shaxs qilib tarbiyalash muqaddas burchimizdir. Lekin insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish ko'p qirrali murakkab jarayondir. U kunlar, oylar va hatto, bir necha yillar mobaynida oliy maqsad yo'lida sabr-toqat, chidam va qat'iylik, irodali bo'lishni talab etadi.

Hozirgi kunda bu murakkab jarayonni, ya'ni o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini samarali shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligida amalga oshirilsa, yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy insonparvarlik fazilatlarini tarkib topadi. Bizning oldimizda turgan dolzarb muammolardan biri, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda vatanga muhabbat, mehnatga fidoyilik bilan o'zgalarga foyda keltirish, samimiylilik kabi xislatlarni kamol toptirishdan iborat. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning mehr-muhabbati ham samarali ta'sir etadi. Bu borada Prezidentimiz quyidagicha fikrni bildiradi "Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak

bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz" [2].

O'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor berish lozim, chunki ta'lim berishda asosiy siymo o'qituvchi bo'lsa, tarbiya berishda oila, ota-onaning o'rni beqiyosdir. Bolalarda insonparvarlik fazilatlarini kamol toptirishda ota-onalar, o'qituvchilar shu bilan birgalikda rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan mahallalarning roli beqiyosdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu borada ijtimoiy institut – mahalla institutiga alohida to'xtalib shunday fikrlarini bildiradi: "Xalqimizda: **"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona"**, degan gap bejiz aytilmagan. Farzandlarimizning ma'naviy barkamol insonlar bo'lib voyaga yetishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida ushbu tuzilmaning rolini yanada oshirish, **"Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy"** tamoyili asosida boshlangan ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish bugungi kun talabidir"[3].

Ayniqsa, maktab, ta'lim-tarbiya sohasidagi vazifalariga to'xtalib, "Ta'lim sohasining yana bir muhim vazifasi – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat'iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat. Shu sababli **"Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari konsepsiyasi"**ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish obyektiv zaruratga aylanmoqda, deb o'ylayman"[4].

Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyot tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat, ma'rifat axloq keng quloq yoygan, ilm-fan taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-birlariga mehr-oqibatli, axloqli, odobli insonlar shakllanishi mumkin.

O'quvchilarda adolatparvarlik sifatlarini shakllantirishda milliy ma'naviy merosimizdan, qomusimizdan, qadriyatlarimizdan, Prezidentimiz asarlaridan, urf-odatlarimizdan foydalanish o'rinlidir.

Bir so'z bilan aytganda, imyon va insof so'z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlaridan bo'lib qoldi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro xis etishi va unga amal qilishi lozim.

Yoshlarni tarbiyalashda Sharqona va milliy axloq-odob ma'naviyatimiz normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son) <https://lex.uz/en/docs/5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga bayram tabrigi // <https://president.uz/uz/lists/view/4250>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi // <https://president.uz/uz/lists/view/4660>
5. Даминова Н. К. ЗАМОНАВИЙ ОЛАМДА ШАХСНИНГ ИЖТИМОЙЛАШУВИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 274-278.
6. Mukhtarovna B. D., Kudratovna D. N. PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. – 2022.
7. Kudratovna D. N. SOCIALIZATION OF YOUNG PEOPLE IN THE PROCESS OF FAMILY EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 02. – С. 37-45.
8. Begmatova Dilnoza Mukhtarovna, & Daminova Nigora Kudratovna. (2022). PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. European Scholar Journal, 3(3), 92-94.
9. Бегматова Д. М. Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 127-129.
10. Махмудова М. ИНСОННИНГ КЕЛАЖАГИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБ ТАНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 4.
11. Махмудова М. Чет тилларни ўқитишнинг педагогик тамойиллари //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2017. – Т. 2. – №. 3 (64). – С. 24-26.
12. Махмудова М. Воспитание общественной активности у младших школьников. – 1994.
13. *Mahmudova, M. (2021). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA IJODIYLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI.*
14. Махмудова М. ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА Международный научный журнал. – 2017.
15. Махмудова М. ЎЗБЕК ОИЛАСИ ВА УНИНГ ФУНКЦИОНАЛЛИГИ АСОСЛАРИГА ДОИР //Scienceweb academic papers collection. – 2016.
16. Махмудова М. М. БИЛИМГА ҚИЗИҚИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ДЕФИНИЦИЯСИ ВА МАЗМУНИ //Педагогика ва психологияда инновациялар. – 2020. – Т. 10. – №. 3.

17. Каршибаева У., Махмудова М. Катта умидлар ва шум бола асарларида макон ва инсон //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2019. – №. 4 (73). – С. 24-27.